

## QUYI AMUDARYOGA NAZAR-OROL DENGIZI MISOLIDA

**Abdullayeva Go‘zal Xidirboy qizi**

Jizzax davlat pedogogika universiteti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada turli omillar jumladan, inson faoliyati bilan bogliq Orol dengizining qurish sabablari, oqibatlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Orol dengizi fojeasi, ichimlik suvlari tanqisligi, cho‘llanish, iqlimning keskin o‘zgarishi, iqtisodiy-ijtimoiy muommolar, BMT, Trans jamg‘arma, geoekologik loyihalar.

### A VIEW OF THE LOWER AMUDARYO AS AN EXAMPLE OF THE ARAL SEA

#### ABSTRACT

In the article, various factors, including the causes and consequences of the construction of the Aral Sea related to human activity, are mentioned.

Key words: problem of the Aral sea, shortage of drinking water, desertification, sudden climate change, economic and social problems, UN, Trans Fund.

Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo davlatlari aholisi boshidan kechirayotgan eng yirik global ekologik muammolardan biri Orol dengizi fojiasi bo‘lib, o‘zining geoekologik, iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari bilan butun dunyoga bevosita bog‘liqdir. Shu jumladan mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy barqaror rivojlanishi, aholi salomatligi va genofondi, unda istiqomat qiluvchilarning kelajagiga katta xavf solmoqda. XIX asr o‘rtalariga qadar dunyodagi eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo‘lgan Orol dengizi deyarli butunlay yo‘qolib ketish arafasida

va misli ko‘rilmagan falokatga aylangan, u yerda yashovchi aholi nafaqat salomatligiga balkim turmush tarziga ham tuzatib bo‘lmas zarar yetkazdi. Orol dengizining ekotizimi va biologik xilma-xilligiga nazar tashlasak, maydoni 68,9 ming km<sup>2</sup>, suv hajmi 1083 kub km, uzunligi 426 km, kengligi 284 km, chuqurligi 68 m edi. Orolbo‘yi hududi flora va fauna dunyosining xilma-xilligi, Orol dengizi havzalarida 38 turdagi baliqlar va bir qator noyob hayvonlar yashaydigan, sayg‘oqlar soni 1 millionga yetgan, floristik tarkibi 638 turni tashkil etgan yaxlit hudud bo‘lgan. Faqatgina tabiiy jihatdan emas balki, Orolbo‘yi mintaqa iqtisodiyotida ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, mintaqa aholisi bandligini ta’minlash, barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z vaqtida Orol dengizi dunyodagi eng boy baliq ovlash suv havzalaridan biri edi. Yillik baliq ovlanishi 30-35 ming tonnani tashkil etar edi. Orolbo‘yi aholisining aynan 80% dan ortig‘i baliqchilik, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tashish bilan shug‘ullanar edi. Shu bilan birgalikda Amudaryo va Sirdaryo deltasining unumdor yerlari va yuqori mahsuldorlikka ega yaylovlarida chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilar va qariyb 100 mingdan ortiq kishining bandligini ta’minlanar edi.

Orol dengizi, shuningdek, iqlimni moslashtiruvchi suv havzasi bo‘lib xizmat qilar edi. Yani butun mintaqada ob-havoning keskin yumshatib, aholining turmush sharoiti, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va ekologik vaziyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatar edi. Qish faslida hududga kirib kelgan havo massalari isib, yozda Orol dengizi akvatoriyasida soviydi va akkumlyator vazifasini ham bajarar edi.

O‘tgan asrning 60-yillarida mintaqaning eng yirik transchegaraviy daryolari – Sirdaryo va Amudaryoning suv harakatini o‘ylamay yangi yerlarni o‘zlashtirish va tartibga solish natijasida Orol muammosi paydo bo‘ldi va dahshatli miqyosga ko‘tarildi. Amudaryo va Sirdaryo o‘tmishda Orol dengizini 56 kub kilometr suv ta’minlagan, natijada mintaqada istiqomat qiluvchi aholining sezilarli darajada o‘sishi va urbanizatsiya darajasiga, yerlarning intensiv o‘zlashtirilishi ko‘lamiga bevosita tasir ko‘rsatgan, Orol dengizi qurishi geoekologik muommosi bevosita oqibati nafaqat

Markaziy Osiyoda, balki boshqa mintaqalarda ham keskin iqlim o‘zgarishi tarzida namoyon bo‘layotgan edi. Olimlar fikricha Orol dengizi inqirozi zonasi bevosita Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekiston, shuningdek, bilvosita Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarini qamrab oldi. Orol dengizining yalang‘och qismida kattaligi 5,5 million ge maydonga teng yangi sho‘r cho‘l Orolqum paydo bo‘ldi. Yiliga 90 kundan ortiq chang bo‘ronlari, har yili minglab kilometr masofaga atmosferaga 100 million tonna chang va zaharli tuzlarni tarqatadi.

Orol dengizi falokatining tahdidli ta’siri bugungi kunda butun dunyoda kuzatilmoqda. Xalqaro ekspertlarning fikricha, Orol mintaqasi hududining zaharli tuzlari Antarktida qirg‘oqlarida, Grenlandiya muzliklarida, Norvegiya o‘rmonlarida va yer sharining boshqa ko‘plab qismlarida uchramoqda. Achinarlisi shundaki, bugun Orol dengizining avvalgi to‘liq holatiga qaytishi allaqachon imkonsiz ekanligi barchaga ayon bo‘ldi. 2015-yilda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Barqaror rivojlanish sammitida O‘zbekiston davlat hukumati BMT raxbarligida Orol dengizi va Orolbo‘yi mintaqasi bo‘yicha maxsus Trast jamg‘armasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqishdi va quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish va maqsadli dastur hamda loyihalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- aholi salomatligini muhofaza qilish va genofondini saqlash, Orolga tutash hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirishning samarali tizimini ishlab chiqish, shu hududda yashovchi aholi uchun zarur munosib turmush sharoitlarini yaratish;

- Orolbo‘yining ekologik muvozanatini saqlash, cho‘llashishga qarshi kurashish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni ko‘rish va suvdan oqilona foydalanishni amalga oshirish;

- hayvonot va o‘simlik dunyosining bioxilma-xilligini tiklash, hozirgi vaqtda yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan noyob o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish;

Ushbu tashabbusni amalga oshirish maqsadida BMT bilan hamkorlikda “Orol dengizi fojiasidan jabr ko‘rgan jamiyatlarning barqarorligini Orol dengizi uchun inson

xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik jamg'armasi orqali mustahkamlash” dasturi ishlab chiqildi. 2017-yil 10-fevral kuni Toshkent shahrida ushbu dasturning rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi. Bu vazifalarni hududiy miqyosda amaliy hal etishga ham katta sa'y-harakatlar qaratilmoqda. 1993 yil yanvar oyida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ta'sischilari bo'lgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining (XOXF) tashkil etilishi bu boradagi eng muhim voqea bo'ldi. Orol muammosining salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida IFAS doirasida Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha uchta dastur (ASBM-1, ASBP-2, ASBM-3) amalga oshirildi.

O'zbekistonda ham Orol dengizining qurib ketishining atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'siriga qarshi kurashish bo'yicha milliy miqyosda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

2015-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2015-2018-yillarda Orol halokati oqibatlarini yumshatish, Orolbo'yi mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kompleks dasturi to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. 2017-yil 18-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan viloyat aholisining turmush sharoiti va sifatini yaxshilashga qaratilgan 2017-2021-yillarda mintaqa hududini rivojlantirish Davlat dasturi ham tasdiqlandi. Dasturda yangi ish o'rinlari tashkil etish, viloyatning investitsion jozibadorligini oshirish, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimini rivojlantirish, transportni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab o'tildi, aholi punktlarining muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, Nukus, Urganch shaharlarida issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash chora tadbirlari ko'rib chiqildi. Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan foydalanish bo'yicha O'zbekistonning pozitsiyasi o'zgacha. Hozirgi vaqtda O'zbekiston transchegaraviy daryolarning quyi oqimida joylashgan Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi jiddiy suv tanqisligidan aziyat chekayotganini hisobga olib qarajak, O'zbekiston hukumatining Markaziy Osiyodagi transmilliychegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha pozitsiyasi quyidagicha:

- Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan foydalanishi mintaqa yashovchi 60 milliondan ortiq aholi manfaatlarini hisobga olgan holda qayta hal etilishi kerak;

- transchegaraviy daryolardan foydalaniladigan har qanday harakatlar mintaqaning mavjud ekologik va suv balansiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

- suvdan oqilona foydalanish va ekologiyaning amaldagi xalqaro huquqiy bazasi Markaziy Osiyoda transchegaraviy daryolar resurslaridan birgalikda foydalanishning samarali tizimini barpo etish uchun asos bo'lishi kerak;

- loyihalarni amalga oshirishda konstruktiv yondashuv, shuningdek, boshqa manfaatdor davlatlarning manfaatlarini daxlsizligi va 2ta zarur shartni kafolatlaydigan murosa asosida amalga oshirilishi kerak:

Bugungacha mintaqada transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash masalasini hal qilishning boshqa muqobil yo'li yo'q, konstruktiv va tsivilizatsiyalashgan muloqotga yordam beruvchi huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali mintaqaviy kelishuvga erishishdan tashqari O'zbekiston hukumati Markaziy Osiyo davlatlari bilan ana shu yondashuvlar asosida yaxshi qo'shniçilik va do'stlik ruhida hamkorlik qilib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Berg L. S., Aralskoye more, SPB, 1908;
2. Shuls V. L., Mashrapov R., O'rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;
3. Rafikov A. A., Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari, T., 1981;
4. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990;